



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 20-mart

VII-9-38-7-0-K/25

Samarqand viloyati

Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunining 4 va 9-moddalariga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 27-yanvardagi yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-fevraldagi (03/08-2050-son) ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, to'qqizinchı sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 27-yanvardagi yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-fevraldagi (03/08-2050-son) ekspertiza xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risidagi taklif ilovaga muvofiq maqullansin.

3. Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (T.Mahmudov), O'zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (Sh.Yuldashev), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Abdiyev), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Xatamov), Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan aholi punkti nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

4. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (R.Mamatov), Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) o'zgartirilgan aholi punktiga aholini ro'yxatga qo'yish hamda tegishli yo'l belgilarini o'zgartirish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Xatamov) Oqdaryo tumani hokimligi (Sh.Qudratov) bilan birgalikda o'zgartirilgan aholi punktiga belgilangan

tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Ixtiyorov), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MChJ (N.Norbekov) mazkur qarorni “Zarafshon”, “Самаркандинский вестник”, “Овози Самарқанд” gazetalarida chop etilishini hamda Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasiga va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punkti nomini 10 kun muddatda davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (Sh.Djurakulov) va viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Negmatov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-9-38-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

T/r	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning o‘zgarayotgan nomi	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	Oqdaryo tumani	Turon	Arpaariq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq